

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


24 noyabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-24 noyabr Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

SQB va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,817% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,873% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,392% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- 2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT₁) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,437% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 9,401% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 9,269% – 9,439% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,439% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,474% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,171-8,878% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,91-4,51% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,0% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 3,91% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,047% (3 oylik) va 2,123% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **744,8** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **43,6** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 009** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib **11 971** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **7,23%** ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




24.11.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Tenge bankda** qayd etilgan – **11 960** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **11 970–12 050** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **Infinbankda** qayd etilgan – **11 970** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **11 950 – 11 860** so'm atrofida bo'lgan.

USD-RUB dinamikasi




➤ Dollar kursi bosqichma-bosqich pasaydi

2025 yil 17–21 noyabr kunlari rubl asta-sekin mustahkamlandi: USD/RUB kursi 81,3 dan 80,0 gacha tushdi. Pasayish bosqichma-bosqich kechdi va past volatilitik hamda barqaror ichki bozor sharoitida yuz berdi. Rublga qo'shimcha qo'llab-quvvatlash barqaror byudjet oqimlari va importchilar tomonidan muvozanatli talab bilan ta'minlandi, shuningdek, dollar sezilarli darajada kuchayish ko'rsatmadi.

Rubl o'rtacha, biroq barqaror mustahkamlanishni namoyon etmoqda. Past volatilitik hamda ichki talab va taklif o'rtasidagi muvozanat USD/RUB kursining 80 atrofida mustahkamlanishiga xizmat qildi. Bu holat tashqi bozor bosimlariga nisbatan ichki omillarning vaqtinchalik ustunligini aks ettirib, keyingi konsolidatsiya uchun asos yaratmoqda.

RUB-YUAN dinamikasi




➤ RUB/CNY: kurs barqaror

2025 yil 17–21 noyabr kunlari RUB/CNY kursi nisbatan barqaror bo'lib qoldi va 10,9–11,1 kabi tor diapazonda tebrandi. Juftlik hafta boshida 11,1 darajasida ochilib, 21 noyabrga kelib asta-sekin 10,9 gacha pasaydi. Volatilitik minimal bo'lib, keskin tebranishlar kuzatilmadi.

Kurs barqarorligini Rossiya va Xitoy o'rtasidagi izchil savdo oqimlari, shuningdek import va eksport bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarning mo'tadil faolligi qo'llab-quvvatlab turdi. RUB/CNY barqaror dinamikani namoyon qilmoqda, joriy tebranishlar juda kichik bo'lib, bu ichki va tashqi omillar o'rtasidagi muvozanatni aks ettiradi hamda yaqin istiqbolda kursning mo'tadil harakatlanishi saqlanishiga ishora qiladi.

EUR-USD dinamikasi




➤ EUR/USD sekin pasaymoqda

2025 yil 17–21 noyabr kunlari EUR/USD kursi bosqichma-bosqich 1,1624 dan 1,1552 gacha tushdi. Juftlik hafta boshida 1,1624 darajasida ochildi, undan keyin esa keskin sakrashlarsiz, mayda tebranishlar bilan asta-sekin pasayish kuzatildi.


Yevro kursiga Yevrozona iqtisodiyotidagi sust dinamika bosim o'tkazdi, shu bilan birga dollar FRS siyosatiga oid kutishlar fonida qo'llab-quvvatlangani holda mustahkam turdi. EUR/USD o'rtacha pasayish tendensiyasini namoyon etmoqda; juftlik nisbatan tor diapazonda saqlanib turibdi, bu esa dollarga oid omillarning yevroga nisbatan ustunligini hamda qisqa muddatli barqaror dinamikani aks ettiradi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



Brent nefti narxlarini dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Oltin bosim ostida

2025 yil 17–21 noyabr kunlari oltin narxlarini tor diapazonda tebrandi va hafta oxirida mo'tadil pasayish kuzatildi. 21 noyabr kuni spot-oltin narxi taxminan 4 065 dollar/untsiyaga tushdi, bunga AQSh mehnat bozoriga oid kutilganidan kuchliroq ko'rsatkichlar sabab bo'ldi.

Qisqa muddatda oltin bosim ostida bo'lsa-da, fundamental omillar hana qulayligicha qolmoqda. Investoerlar metallni kapitalni himoya qilish vositasi sifatida ko'rib kelmoqda, bozor esa valyuta va iqtisodiy sharoitlar barqarorlashgan taqdirda mo'tadil o'sish salohiyatini saqlab turibdi.

➤ Brent neft narxi 62 dollargacha tushdi

O'tgan hafta Brent kotirovkalari 65 dollardan 62 dollargacha pasaydi. Bunga Ukraina bo'yicha mumkin bo'lgan tinchlik kelishuvi haqidagi xabarlar, AQShning kuchayib borayotgan sanksion bosimi hamda Rossiya nefti yetkazib berishidagi noaniqliklar sabab bo'ldi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, bozor har qanday deeskalatsiya ishorasiga zudlik bilan javob bermoqda, «Rosneft» va «Lukoil»ga nisbatan yangi cheklovlar esa qo'shimcha-xavflarni yuzaga keltirmoqda. Vaziyatga Venesuela omili ham ta'sir qilmoqda, bu esa barrel narxining pasayishiga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda analitiklar 60–70 dollar diapazoni saqlanishini kutmoqda, biroq yil oxirigacha narxning 60 dollardan pastga tushish ehtimoli ortib bormoqda.

➤ Pasayishdan keyingi tiklanish

2025 yil 17–21 noyabr kunlari TTF gazi narxlarini mo'tadil pasayishni namoyon etdi. 18 noyabr kuni pik daraja 36,8 dollar/MVt-soat atrofida qayd etildi, shundan so'ng kotirovkalar asta-sekin pasayib, 21 noyabrda 35,0 dollar/MVt-soatga yetdi. Dinamikaga yetkazib berishning barqarorlashuvi va bozordagi mo'tadil talab ta'sir ko'rsatdi, keskin tebranishlar esa kuzatilmadi.

TTF gazi qisqa muddatli o'sishdan keyin mo'tadil pasayishni ko'rsatmoqda, bu bozordagi barqaror vaziyatni hamda talab yoki taklifda yirik tebranishlarning yo'qligini anglatadi.

Yangiliklar

Bakai Bank birinchi “aqli” AI bankomatlarini ishga tushirdi — BakaiGPT tizimi mijozlarni tanib, operatsiyalar qulayligi va xavfsizligini oshiradi.

BofA Datos Insights tomonidan taqdim etilgan to'rtta innovatsion mukofotni oldi; ayniqsa korporativ mijozlar uchun mo'ljallangan AI-asosidagi CashPro Analytics vositalari alohida e'tirof etildi.

Bereket Bank — Qirg'izistonning birinchi to'liq raqamli aktivlar va blokcheyn xizmatlariga yo'naltirilgan banki sifatida ishga tushirildi.

“Sberbank” Rossiyaning eng innovatsion banki deb topildi 2024-yil natijalariga ko'ra, bank “Skolkovo” fondi tomonidan tuzilgan innovatsionlik reytingida birinchi o'rinni egalladi. Bu Rossiyadagi yirik banklar raqamli transformatsiyani faollashtirayotganini, startap ekotizimlarini yaratayotganini va texnologik kompetensiyalarni kuchaytirayotganini tasdiqlaydi — bu esa fintex muhitida raqobatbardoshlik uchun muhim ahamiyatga ega.